

KASB TANLASH OSONMI?

Rafikova Dilafroz Kaxxaraliyevna

Farg'ona davlat universiteti pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Abdunazarova Mehriniso Abdurashidovna

Fizika-texnika fakulteti 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada umrning asosiy qismi, mehnat faoliyati, shaxsning asosiy tirikchilik manbai bo'lgan kasb va kasb tanlash undagi qiyinchiliklar, ota-ona va o'qituvchilar ko'magi, kasb tanlovchilarning istaklari, kasbga to'g'ri baho berish va to'g'ri tanlay olish, muammo va kamchiliklarni tan ola bilish, tirishqoqlik va matonatli bo'lish, to'siq va mashaqqatlarni yengib o'tish kerakligi va bu bilan bir qatorda boshqa masalalar ham yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: kasb, kasb tanlash, maosh, his-tuyg'u, maqsad, istak, amaliy mashg'ulot, noto'g'ri tanlangan kasb, oilaviy an'analar, qadriyat, imkoniyatlar, qulayliklar.

ЛЕГКО ЛИ ВЫБРАТЬ КАРЬЕРУ?

АННОТАЦИЯ

В данной статье основная часть жизни, трудовая деятельность, профессия, которая является основным источником жизнеобеспечения человека и сложности в выборе профессии, поддержка родителей и учителей, пожелания выбирающих профессию, Освещены правильная оценка профессии и правильный Умение выбирать, распознавать проблемы и недостатки, быть трудолюбивым и настойчивым, преодолевать препятствия и трудности и другие вопросы.

Ключевые слова: карьера, выбор профессии, заработная плата, чувства, цель, желание, практика, неправильный выбор профессии, семейная традиция, ценность, возможность, комфорт.

IS IT EASY TO CHOOSE A CAREER?

ANNOTATSIYA

In this article, the main part of life, work, profession, which is the main source of life support for a person and difficulties in choosing a profession, support for parents and teachers, wishes for choosing a profession, The correct assessment of the profession and the right ability to choose, recognize problems and shortcomings, be hardworking and persevering, overcome obstacles and difficulties and other issues.

Keywords: career, choice of profession, salary, feelings, goal, desire, practice, wrong choice of profession, family tradition, value, opportunity, comfort.

Bizga ma'lumki, yoshlar muammolarini samarali hal etish maqsadida 2020- yil 30 iyunda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga muvofiq, yoshlar siyosatini yuritishda davlat idoralari oldiga masala qo'ya oladigan, zarur vakolat va moliyaviy resurslarga ega bo'lgan Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi.[2] 2020-yil 14-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida aholini kasb-hunarga o'qitish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Yig'ilishda "Yoshlarimizga kasb-hunar o'rgatadigan, ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantiradigan tizim yo'qligi achchiq haqiqat" deb ta'kidlab o'tishdi[1].

Bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri kasbni to'g'ri tanlash, kasbga nisbatan ijodiy munosabatni shakllantirish hamda kasb tanlashdagi qiyinchilik va muammolarni bartaraf etishdir.

Kasb (lotincha: profession — rasmiy ko'rsatilgan mashg'ulot) — maxsus nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar majmuiga ega tajribali shaxsning mehnat faoliyati turi hisoblanadi. Kasb — kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg'uloti turi; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. Kasb, odatda, shaxsning asosiy tirikchilik manbai ham hisoblanadi. Kasb tanlash – har bir inson hayotidagi eng muhim tanlovlardan biri. Kasb – nafaqat daromad topish manbayi, balki umrning asosiy qismi sarflanadigan faoliyat hamdir[3].

Insonda turli xil kasblarni tanlash imkoniyati juda keng. O'z-o'zidan ravshanki, har bir inson o'z kasbini tabiiy qobiliyatlari va xohish, imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tanlashi kerak. Hozirgi kunda minglab turli kasblar mavjud, ammo u yoki bu kasbni tanlashda eng muhimi qiziqish, istak bo'libgina qolmay maosh masalasi ham katta axamiyatga ega. Har bir inson ijtimoiy mavjudotdir. Shuning uchun keksalikda hech bo'lmaganda biror bir turdagi nafaqa olish uchun ham ishlash kerak.

Kasb tanlash unchalik oson emas. Asosiy qiyinchilik shundaki, ko'p insonlar asosan maosh masalasiga ko'proq e'tibor berishadi bu ularning his-tuyg'ularini e'tiborsiz qoldirishiga olib keladi. His-tuyg'ular inson hayotida asosiy o'rinni egallaydi, ularning yordami bilan siz odamda ko'p narsalarni tushunishingiz mumkin. Tuyg'ularni e'tiborsiz qoldirish insonni o'zi bilan ziddiyatni keltirib chiqaradi, bu salbiy va uzoq davom etadigan oqibatlariga olib keladi.

Esingizda bo'lsin, hayot qisqa. Ko'rinadigan darajada ko'p vaqtimiz yo'q. Soxta maqsadlarga, keraksiz xatolarni tuzatishga vaqt sarflamang. Ketgan vaqtni qaytarib bo'lmaydi. Shuning uchun siz dastlab sizni baxtli qiladigan kasbni tanlay olishingiz kerak.

Qadriyatlaringizni, kuchli tomonlaringizni, qiziqishlaringizni, turmush tarzingizni tahlil qiling va shundan keyingina sizni muvaffaqiyatga olib keladigan, uzoq kutilgan baxtni topishga imkon beradigan kasb haqida o'ylang. Maqsadlaringiz siz bilan uyg'un bo'lishi kerak va shundagina siz ijodda, ishda, moddiy farovonlikda, shaxsiy hayotingizda muvaffaqiyatga erisha olasiz.

Yana bir mulohaza. Ba'zida o'g'il bolalar yanglishib qizlarga mos bo'lgan kasb-hunarni tanlashadi, qizlar esa o'g'il bolalar o'qiydigan o'qishlarga kirib qolishadi. Bir-ikki yil o'qib, amaliy mashg'ulotlar boshlangach, bu o'qishga noto'g'ri kiribman yoki bu kasbni noto'g'ri tanlabman, deb afsuslanishadi. Shunday holatga tushib qolmaslik uchun o'zingiz istagan o'qish yoki ota-onangizning maslahati bilan tanlagan yo'lga qadam tashlashdan avval shu kasb-hunarning, mutaxassislikning o'ziga xos jihatlarini yaxshilab o'rganing. Kasbingizni yetuk mutaxassisi bo'lish uchun ko'p o'qish zarurligini ham bilasiz. Maqsadingizga erishish uchun zahmatlarga tayyorsiz. Kelgusida sizni nimalar kutayotgani haqida tasavvurga ham ega bo'ling. Bu yo'lda faqat dadil qadam tashlash qoldi, xolos.

Ko'pincha kasb tanlovchilar kasblarini faqat ijobiy tomonlarini yoki aksincha salbiy jihatlarini ko'radilar. Buning uchun ota-onalar va o'qituvchilar farzandlariga ko'p narsalarni aniqlab olishlari uchun yordam berishlari kerak. Shunday qilib, siz biror kasbni tanlash to'g'risida qaror qabul qildiz yoki biror narsani tanladiz. Endi siz o'zingizni sinab ko'rishingiz maqsadga muvofiq. Buning uchun turli o'quv- guruhleri bo'lgan ko'plab ixtisoslashgan maktablar, tashkilotlar va kurslarga tashrif buyurishingiz mumkin, ular sizga o'zingizni sinab ko'rish imkoniyatini beradi. Mazkur ta'lim muassasalarining aksariyat qismida darslar bepul amalga oshiriladi.

Sizni o'zingiz xohlagan aniq tanlovingiz bo'lishi bilan birga har holda qo'shimcha ravishda e'tiborga olishingiz kerak bo'lgan kasbingiz ham bo'lishi kerak. Hayotni oldindan aytib bo'lmaydi chunki har qanday narsa yuz berishi mumkin. Shu bois, tanlagan universitet va yo'nalishingizga qobiliyatlaringiz mos kelmaganligi sababli

kira olmay ko'nglingizda jarohat hosil bo'ladi. Bu paytda tushkunlikka tushmaslik, boshqa optimal variantlarni ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Kasb tanlashda oilaviy an'anani davom ettirish shart emas. Sizni ota-onangizni ishi undagi imkoniyatlar qulayliklar shuning bilan birga siz uchun muvaffaqiyatli martaba bo'lishi haqida oldindan bashorat qilib gapirishlari mumkin. Agar siz onangiz yoki otangizni kasbini o'z xohishingizga binoan davom ettirmoqchi bo'lsangiz bu juda yaxshi. Lekin sizni majbur qilishning o'zi noto'g'ri. Masalan, ona butun hayot davomida o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullandi lekin u bu faoliyatidan ko'ngli to'lmaganligi sababli allaqachon voz kechish kerak edi. Endi o'zi xohlagan kasbiga qizi orqali erishishiga harakat qiladi. Ammo bu holatda qizining qiziqishlariga ham e'tibor berishi kerak. Farzand – alohida shaxs va uning o'z istaklari bor. Bu istaklar avvalroq armon bo'lgan xohishlar uchun qurbon bo'lmasligi kerak. Qarorni tinchlik yo'li bilan qabul qilishga harakat qiling. Baribir yakuniy qarorni o'zingiz qabul qilishingiz lozim. Inson yoqtirmagan ishi bilan butun hayot davomida shug'ullansa, o'zini baxtsiz his qiladi. Qaror faqat mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Ota-onangiz tomonidan beriladigan maslahatlar foydali lekin ularni fikri yakuniy qaror bo'lmasligi yordamchi ta'sirga ega bo'lishi maqsadga muvofiq. Psixologlarning ta'kidlashicha, biz ko'pincha atrof-muhitga, qarindoshlar, o'qituvchilar, do'stlarimizga e'tibor qaratamiz. Odatda bunday vaziyatda ikkita yo'ldan boramiz ya'ni ularning fikriga amal qilamiz yoki aksincha. Tanlagan kasbiga mehr qo'yib, uni mukammal egallash yo'lida tinimsiz intilgan, qunt qilgan odam albatta, o'z kasbining ustasi bo'lib yetishadi.

Tan olishimiz kerak muammolar ham kamchiliklar ham yo'q emas. Chunki bir qadam oldinga yurish uchun ham to'g'ri yo'lni tanlay bilish lozim. Eng muhimi to'g'ri yo'lda ekanimizdan mamnunman. Hech narsa o'z-o'zidan qo'lga kiritilmaydi. Mehnatgina muvaffaqiyatga yetaklaydi. Maqsad sari tirishqoqlik va matonatli bo'lish, to'siq va mashaqqatlarni yengib o'tish zarur. Tanlangan kasbga erishish sari har qanday harakat ko'p quvonch keltiradi.

Yuqoridagi fikrlarimiz asosida quyidagi xulosalarni keltirib o'tamiz:

- olingan materiallarni har tomonlama ko'rib chiqing, yaxshilab tahlil qiling; - sizni yaqindan biluvchi insonlar – oila a'zolaringiz, do'stlaringiz bilan maslahatlashgan holda, ularning fikriga ko'ra, siz tanlagan kasbingiz o'zingizga mos kelishi haqida so'rab olishingiz mumkin; - ommaviy axborot vositalari yangi kasb sohalari haqida ko'proq ma'lumot olishga yordam beradi. Maxsus manbalar (adabiyotlar, onlayn platformalar) (sizga jamiyatda ehtiyoji yuqori bo'lgan yo'nalishlar haqida ma'lumotlar beradi; – to'plagan ma'lumotlaringizni chuqur tahlil qiling; - albatta o'zingizni xohishingiz esingizdan chiqmasin; – imkoniyat bo'lsa, kasb tanlash bo'yicha malakali mutaxassis bilan maslahatlashish maqsadga muvofiq; – istaklaringiz va hayotdagi maqsadlaringizdan kelib chiqib xulosa qiling.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev. <https://www.spot.uz>;
2. O‘zbekiston respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston respublikasi prezidentining farmoni, 30.06.2020 yildagi PF-6017-son.
3. O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. 4-tom. – T.: “O‘zbekistan milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 169 b.
4. Рафиқова.Д, Азимов.У. ТАЪЛИМНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ВА ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2 (81). – С. 167-169.
5. Рафиқова.Д., Азимов.У. MODERNIZATION OF EDUCATION AND INCREASING THE QUALITY OF EDUCATION //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2. – С. 167-169.
6. Азимов.У.А, Тожибоева.Г.А. ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА ЁШЛАРНИНГ ДЕМОКРАТИК ҚАДРИЯТЛАР ТИЗИМИГА АКЦИОЛОГИК МУНОСАБАТИНИ РИВОЖЛАНИТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ //Экономика и социум. – 2021. – №. 11-1 (90). – С. 694-698.
7. Азимов.У., Холназарова.Ш. Приоритетные направления развития аксиологического отношения молодежи к демократическим реформам //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 8/S. – С. 480-492.
8. Азимов.У. Факторы развития аксиологического подхода к демократическим реформам у молодежи в контексте гражданского общества на основе национальных ценностей //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 8/S. – С. 296-302.